



AZIM SUYUN IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARIGA XOS XUSUSIYATLARNING IFODALANISHI

Ashurova Zarina

NavDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi

1-kurs magistranti

Yangi o'zbek adabiyoti gulshanida Azim Suyun ijodi o'zgacha tarovat taratib turadi. Azim Suyun she'rlariga betakror mazmun-mohiyat, obrazlar silsilasi, so'z, jumla talqini, umuman, g'oyaviy- badiiy nafosati adabiyotshunoslikda hali to'liq tadqiq etilgani yo'q. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uning samimiy, o'ynoqi, quyma satrlari va elga Manzur bo'lgan muhabbat qo'shiqlaridagi ayrim jihatlarni o'rganib, tahlilga tortishni lozim topdik.

“Yashash uchun kurash! Azim Suyunning barcha yozganlari bu- yashash uchun kurash. Shu kurashning so'zlari. Shu kurashning ilhomlari” Ibrohim G'afurov o'z estaliklarida shoirni shunday xotirlaydi.

Azim Suyun ijodi o'zining serqirraligi, betakror jozibasi, badiiy salmog'i bilan ajralib turadi. O'zi ta'riflagan Nurota tog'lariday serviqor she'rlari kichik nasriy asarlarini o'qir ekansiz, mavzu ko'lamining kengligi bilan bir qatorda har birida takrorlanmas ohang, xalq poeziyasiga uyg'un so'z qo'llash mahoratini sezasiz. Biz ko'proq Azim Suyunni lirik shoir sifatida bilamiz, ammo ijodkorning zamonaviy o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan nasriy asarlari ham talaygina. Ular hajm jihatdan katta bo'lmasa-da, mavzu ko'lami jihatdan beqiyos salmoqqa ega. Ushbu asarlarning aksariyatida adibning o'zi tug'ilib o'sgan Nurota tog'lari tabiatiga xos xususiyatlarni, topilmas va kamyob hayvon turlarining o'zgacha xarakter holatlarini, tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, o'z tarjimayi holida ko'p ta'kidlagan xalqona ohang ijodkor asarlarida yaqqol sezilib turadi. Qishlog'ining so'lim joylarini otasi Suyun bobo bilan sayr qilgan adib bolaligidanoq xalq aytimlariga, afsona-yu rivoyatlariga to'yinib ulg'ayadi.

Xalq og'zaki ijodi nafaqat mumtoz asarlarimizga, balki zamonaviy adabiyot namunalarimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymagan. Xususan, Azim Suyun ijodida folklor namunalari uslubiga xos bo'lgan ayrim jihatlar-turli mifologik qarashlar mavjud.

Bilamizki, Mif xalq og'zaki ijodi janri hisoblanib, unga quyidagicha ta'rif beriladi: “Mif qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan”⁴⁸.

Miflar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) Ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar);

⁴⁸ B.Sayfullayev. Madaniyat va san'at atamallari qomusiy lug'ati.-T.2014.<http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/86113>



2) Samoviy miqlar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miqlar);

3) Antropogenik miqlar (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy qahramonlar haqidagi miqlar);

4) Sig'inish miqlari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, masalan, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miqlar);

5) Etnogenetik miqlar (urug'-qabilalarning kelib chiqishi haqidagi miqlar);

6) Kalendar miqlar (yil, oy, kun hisobi bog'liq miqlar);

7) Esxatologik miqlar (olamning intihosi haqidagi, mas, oxirzamon to'g'risidagi miqlar).⁴⁹

Xuddi shunday maqsadni o'zida mujassamlashtirgan hikoyalarida adib ba'zi bir geografik hududlarning nomlanishiga ham to'xtalib o'tadi:

"Shunday joylarimizdan biri Yetimhovuz. "Yetimhovuz" deb atalishining sababi, u yerda yolg'iz, g'aribgina buloq suvlaridan paydo- hovuz bo'lgan. Ana shu hovuzning oftobchiqar tomoni-balandlik. Keragatosh degan tizma qoyalar tuya karvonlari yanglig' salobat bilan tiz cho'kkan".⁵⁰ "Keragatosh kakliklari" hikoyasidan olingan ushbu parchada mazkur joyning nomlanishiga asos bo'lgan yolg'iz hovuz haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Azim Suyun hikoyalarida ko'plab folklor namunalarida nomi kelirilgan Xizr obraziga ham duch kelishimiz mumkin. "Sahro o'rtasida to'ng'itilib yotgan toshbaqa" hikoyasida "Men odam qavmidan. Faqat Tangrim menga Obihayot- hayot bulog'idan suv ichirgan! Harki gunohsiz, beayb, og'ir ahvolda qolgan tiriklarga mushkulini oson qilishga imdod berguvchi- ibrat holatida umrboqiylik ato etilgan zotman! Hayot boqiy!!!"⁵¹ Hizr aynan "Obihayot"ni ichgani uchun umrboqiyga aylanadi va abadiy yashaydi. Toshbaqa ham uzoq yashovchi sudralib yuruvchi hisoblanib, hikoyada noma'lum qo'llar teskari qilib qo'yishi oqibatida yomg'ir yog'ishi haqida mashhur asotirlarga ishora qilinadi. Majozan toshbaqaning to'ng'itilishi natijasida boshlangan yomg'ir esa butun tabiatga hayot bag'ishlaydi.

Yana bir kichik nasriyasiga diqqatni qaratamiz: Unda ham "Xizr" nomi keltirilgan, "Sahroda Xizr kelayotgan ekan, ikki cho'pon yo'liqibdi. Xizr- Bir so'z aytaman, kim bir qo'y beradi?-debdi.

-E,-debdi, birinchi cho'pon, - bir so'zga ham bir qo'ymi? Men bermayman,-deb qo'ylarini o'y(chuqurlik, jarlik)ga haydab ketibdi.

Ikkinchi cho'pon:- Men beraman, ayt,- debdi.

O'yda emas, qirda yot,-debdi Xizr.

O'sha kuni tun bo'yi sharros yomg'ir yog'ibdi. O'yda yotgan birinchi cho'ponni

⁴⁹ M.Abdullayeva. Mumtoz tarixiy poetika. T. 2023. B. 16.

⁵⁰ Azim Suyun. Tanlangan asarlar IV kitob. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020, B.

5.

⁵¹ Azim Suyun. Tanlangan asarlar IV kitob. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020, B. 41.



butun suruvi bilan sel oqizib ketibdi. Qirda yotgan ikkinchi cho‘pon o‘z suruvi bilan omon qolibdi.”⁵²

Adabiyotimizda

Xizr obrazining o‘rni beqiyos. Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva-islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur’onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur’onda “Allohning quli” nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar. Misolimizdagi “Bir so‘z” rivoyatida Xizr insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, donishmand shaxs sifatida gavdalanadi.

Tilshunos olim N. Husanovning qayd etishicha, “Xizr matnlarda hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo‘l ko‘rsatuvchi, yashil, daraxt, ma’shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Xizr obraziga xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham tez-tez duch kelishimiz mumkin. Masalan, Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi dostonida Xizr Go‘ro‘g‘lining homiysi sifatida tasvirlanadi. Aynan uning yordamida, ya’ni ona ko‘kragidan sut kelmay qolgach, Xizr tushirgan nur orqali qahramon go‘rdan chiqib, yorug‘ dunyoda yashaydi. Go‘ro‘g‘li shunday tashlanib qolganda, Bolam deb keldi er Xizr bobosi.”⁵³

Azim Suyun ijodida ba’zi bir atamalar yoki buyumlarning kelib chiqish tarixiga bag‘ishlangan afsonaviy ruhdagi nasriyalar ham uchraydi. Jumladan, “yor-yor”ning paydo bo‘lishi haqida shoir quyidagicha sujetni kiritadi. Emishki bir podshohning o‘n bir xotini bor bo‘lib, podshoh uzoq urushga ketgach, o‘n xotini hijron azobiga chiday olmay, vafot etadi. Faqat bir xotini esa barcha dardlarini kuyga solib, vaqt o‘tkazadi. Shu tariqa, “yor-yor” vujudga keladi. Bu voqea qanchalik haqiqatga yaqin, bu bizga qorong‘u. Ammo adibning doimo xalq so‘zlariga oshuftaligi, hech qaysi so‘zning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi haqidagi fikrlarni yana bir karra isbotlaydi.

Yana bir rivoyatda keltirilishicha, sibizg‘aning paydo bo‘lishiga bir cho‘pon yigitning yilqichini qizini sevib qolishi, ammo unga o‘z dil izhorini ayta olmasdan sibizg‘ani kashf qilishi va uning yordamida sevgisini kuylashi voqeasi keltiriladi. Mifalogik qarashlarni o‘zida aks ettirgan ushbu kichik asar ham xalq tilidan ko‘chib yozuvchi ijodidan joy olgan bo‘lsa, ajab emas.

Barcha xalqlarning o‘ziga xos muqaddas deb biluvchi hayvonlari mavjud. Chunonchi xitoyliklar uchun ajdarho va ilon timsoli aziz sanalsa, Hindistonda qoramol va oq fil, Misrda yo‘lbars haqidagi totemistik qarashlar insoniyat tafakkuri va sivilizatsiyasiga ta’sir etmay qo‘ymagan. Turkiy xalq asotirlari orqali bizgacha yetib kelgan totemizm namunalarida ko‘proq ot va bo‘rini ilohiylashtirish holatlariga duch kelamiz. Azim Suyun asarlarida aynan bo‘ri timsolining o‘zbek xalqlari hayotidagi ahamiyatiga urg‘u berilgan:

“Bo‘ri Payg‘ambar iti. Qo‘tonni poklovchi. Ilgarilari qo‘ng‘irot(urug‘ nomi) qo‘toniga bo‘ri oralasa, “mening qo‘shxonamga omad kulib boqdi”, deb bir qo‘yni nimtalab qo‘shni cho‘pon-cho‘liqqa tarqatishgan.”⁵⁴

⁵² Azim Suyun. Tanlangan asarlar IV kitob. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020, B. 131

⁵³ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Dostonlar. Toshkent, 1967, 72-bet

⁵⁴ Azim Suyun. Tanlangan asarlar IV kitob. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020, B. 145



Asarda bo'ri kabi yovvoyi hayvonning ham insonlar turmushidagi beqiyos o'rnini ko'rishimiz mumkin. Qadimiy totemistik qarashlarga ko'ra bo'ri omad timsoli sifatida tasvirlangan. Uning insonlar kundalik hayotiga yetkazgan zarari ham xalqimiz tomonidan yaxshilik darakchisi sifatida qaralgan. Aslida bu kichik detal ham har narsadan ezgulik qidiruvchi xalqimizning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz natijasidan shuni ta'kidlashimiz joizki, Azim Suyun nafaqat nazmiy asarlari orqali, balki nasrdagi beqiyos durdonalari bilan ham bizni xos adabiy muhitdan biroz chetlashtirib, oddiy xalq tiliga yaqin ijodiy asarlaridagi xalqona jaranglarga oshno qiladi. Ularni o'qib adibning sehrlovchi mahoratiga tasannolar aytamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.B. Sayfullayev. Madaniyat va san'at atamallari qomusiy lug'ati. - T.2014.<http://library.ziyonet.uz/uz/book/download86113>
- 2.Azim Suyun.Tanlangan asarlar IV kitob. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020, B.
3. M.Abdullayeva. Mumtoz tarixiy poetika.T.2023.B.16.
4. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. Toshkent, 1967, 72-bet

